

## **MUALLIFLAR UCHUN YO‘ RIQNONOMA**

- Jurnalda yuridik sohadagi asl fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar natijalari e‘lon qilinadi.
- Maqolada keltirilgan ma‘lumotlar va faktlar uchun muallif javobgar hisoblanadi.
- Maqolalarni tanlash mezonlari jurnal profiliga muvofiqligi, natijalarning yangiligi, dolzarbligi va asosiligi hisoblanadi. Yuborilgan qo‘lyozmalar qaytarib berilmaydi.
- Nashr etilgan va/ yoki boshqa nashrlarda chop etishga qabul qilingan asarlarni tahririyatga yuborish mumkin emas. Maqolani tahririyatga yuborish orqali muallif materialni tahrir qilishga rozilik beradi.
- Tahririyatga kelib tushgan barcha materiallar ochiq manbalar orqali originallik darajasi tekshiriladi, tekshirish Antiplagiat tizimi yordamida amalga oshiriladi.
- Tahririyatga yuborilgan maqolalar ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Ro‘yxatga olingan sana - bu to‘liq materiallar to‘plami taqdim etilgan kun hisoblanadi. Agar maqola muallifga qayta ko‘rib chiqish uchun qaytarilgan bo‘lsa, unda ro‘yxatdan o‘tgan sana yakuniy matn olingan kun hisoblanadi.
- Tahririyatga maqola qabul qilish platformasi orqali yuborilgan fayl muallifning familiyasi bilan nomlanishi kerak (masalan, O.Abdullaev.doc)
- Tahririyat maqolani lingvistik tahrirlash huquqini o‘zida saqlab qoladi.
- Nashrga qabul qilinmagan materiallar mualliflarga qaytarilmaydi.
- Mualliflar matnning birlamchi tilidagi sarlavha, annotatsiya va kalit so‘zlarini ikkilamchi tillardagi tarjimasini sifatiga alohida e‘tibor berishlari kerak. Ikkilamchi tillariga sifatsiz tarjima qilingan taqdirda tahririyat maqolani rad etish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

### **Jurnalning tili va geografiyasi**

- Jurnalda maqolalar o‘zbek, rus yoki ingliz tillarida chop etiladi. Maqolaning metama‘lumotlari ingliz, rus va o‘zbek tillarida nashr etiladi. Jurnal mualliflarining geografiyasiga o‘zbek va chet el mualliflari kiradi.